



28. Sonlarni ayirish (43 – 16)

Yondosh mavzu:
San'at

Xona birliklarini
xona birliklariga
qo'shish / ayirish.



1. Yechishni tushuntiring.



$$4 \text{ o'nl. } 3 \text{ birl.} - 1 \text{ o'nl. } 6 \text{ birl.} = \\ = 3 \text{ o'nl. } 13 \text{ birl.} - 1 \text{ o'nl. } 6 \text{ birl.} = 2 \text{ o'nl. } 7 \text{ birl.}$$

2. Misollarni grafik usulda yeching.

$26 - 17$

$31 - 16$

$44 - 25$

$37 - 28$

3. Birinchi kun rassom kitob uchun 20 ta rangli va 17 ta oq-qora rasm, ikkinchi kun esa 18 ta rangli rasm chizdi. Rassom ikkinchi kun birinchi kundagidan nechta kam rasm chizdi?

4. Reja bo'yicha san'at muzeyining 14 ta katta va 9 ta kichik zali ta'mirlanishi kerak. 8 ta katta va 7 ta kichik zal ta'mirlandi. Yana nechta zalni ta'mirlash kerak?




5. Jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib misollar yozing.

Kamayuvchi	56	45		46	36	
Ayriluvchi	28		48	37		29
Ayirma		17	46		28	45



6. Chizma bo'yicha masala tuzing.



7. Doiraviy misollardagi tartibni tiklang.

$27 + 64$ $33 + 59$ $62 - 35$ $25 + 37$ $91 - 58$ $92 - 67$



8. Konsert zalining birinchi qavatiga 16 ta, ikkinchi qavatga 27 ta video kuzatuv kamerasi o'rnatildi. 15 ta kamera har kuni ishlaydi. Nechta kamera faqat konsert vaqtida yoqiladi?



9. Misollarni yeching.

$56 - 19$ $91 - 17$ $51 - 7$ $26 + 5$
 $53 - 48$ $67 + 24$ $42 + 8$ $38 + 9$